

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY TAFAKKURNI
RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI METODLARI**

Turdiyev Azamat

Termiz davlat pedagogika

instituti o‘qituvchisi

Norboyeva Jang‘il

Termiz davlat pedagogika

instituti Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni tasviriy faoliyati, tasviriy qobiliyatlarni aniqlovchi tushuncha va tasviriy qobiliyatlarni rivojlantirish bosqichlari haqidagi tushunchalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijodiy faollik, zamonaviy texnologiya, intellektual salohiyat, tasavvur, dunyoqarash, axborot asri, qobiliyat, kommunikatsiya.*

Pedagogning kasbiy faoliyati nafaqat bilim berish, balki bolalar va o‘quvchilarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga ham qaratilgan. Tarbiyachi o‘zining axloqiy fazilatlarini orqali bolalar va o‘quvchilarga yaxshi o‘rnak bo‘lib, ularning shaxsiyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida yaratilgan shart sharoitlar, ushbu tizim uchun zarur bo‘lgan zamonaviy texnologiyalar, didaktik materiallar va o‘yinchoqlar bilan muntazam ta‘minlanib borishining davlat nazoratida bo‘lishi kishini quvontiradi. Maqsad esa bitta: bolalarni barkamol tarzda voyaga yetkazish, ularni maktab ta‘limiga tayyorlash samaradorligini oshirishdir. Maktabgacha katta yosh - bu o‘zini yorqin ifoda etish, ijodiy qobiliyatlarni namoyon qilish, bolaning ijodkorligini rivojlantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi. Bugungi kunda maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachilarining eng ustuvor vazifalaridan biri “ijodkor bolani” tarbiyalashdir. Bu jarayon qanchalik erta boshlansa samarasi shunchalik barvaqt namoyon bo‘ladi va bolaning butun hayotiga ijobiy ta‘sir qiladi.

Atrof-olamni maktabgacha yoshdagi bolalar tasviriy faoliyatida tushunish ijodiy ko‘rinishlar bilan bog‘liq emas, balki bola ishlayotgan, ko‘rsatayotgan materialning tarkibini aniqlash orqali namoyon bo‘ladi. Masalan, qalam va bo‘yoqlar qog‘ozda iz qoldiradi, loy va plastlindan yumshoq narsalar yasash mumkin. Keyinchalik tasviriy faoliyat va izlanishlarni rivojlantirish uchun bu bosqich kichik ahamiyat kasb etadi. Chunki bola bunda tasavvurlaridagi timsolni yaratish uchun yordam beradigan material bilan tanishadi. Qalamdan qoladigan iz nimanidir ifodalashini tushunadigan bola o‘z xohishi va kattalarning taklifiga ko‘ra qandaydir predmetni tasvirlashga harakat qilsa, unda bolaning faoliyati tasviriy harakter tusini olgan bo‘ladi. Bolada fikr, maqsad bo‘lib, ularni namoyon etishga harakat qiladi. Shu tariqa ijodiy jarayonning birinchi bosqichi fikrning paydo bo‘lishi bola faoliyatida ham hosil bo‘ladi. Rassomda fikrning paydo bo‘lishi bilan odatda mazmunini va

bajarish vositalarini o‘ylab boradi, ish uchun odatda uzoq vaqt kerak bo‘ladi, bolada esa ko‘pincha bu bosqichning hosil bo‘lishi kuzatilmaydi. Bola qanchalik kichik bo‘lsa, u shunchalik o‘ylagan narsasini tez tasvirlashga harakat qiladi. U hali o‘z ishinings natijasini va uni bajarish yo‘lini oldindan ko‘ra olmaydi. Avvaldan o‘ylab ko‘rish va ishni rejalashtirish tasvirlash jarayoni bilan birgalikda amalga oshiriladi. Shuning uchun ham bolalar ijodiyotida faoliyatlar jarayonida ish mazmunini o‘zgartirish hollari tez-tez uchray turadi. Bola tasvirlayotgan rasmdagi timsollarga umuman taalluqli bo‘lmagan detallarni kiritishi mumkin. Bolalarning tasviriy ijodiyotining o‘ziga xos tomonlarini o‘rganish uchun pedagogika tarixida bir qator pedagogik va psixologik tadqiqot ishlari olib borilgan. Bolalarda ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishida tasviriy faoliyat turkumiga kiruvchi faoliyatlarning o‘rni beqiyos ekanligini e‘tirof etgan holda bunday faoliyatlar ularda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirilishiga ham tamal toshini qo‘yishi shubhasizdir. Bolalar rasm, appalikatsiya, loy ishi, qirqib yelimlash faoliyatlari davomida nafaqat biror ish bilan ma‘lum muddat band bo‘ladilar, balki yuqorida aytib o‘tganlarimizga qo‘shimcha ravishda ularda quyidagilar rivojlanadi va shakllanadi:

- tasviriy san‘at sohasiga doir qobiliyatlari aniqlanadi va shakllantiriladi;
- qalam, mo‘yqalamni ushlash, loy, plastilin bilan ishlash, qaychida ayrim narsalarni qirqib yelimlash orqali mayda qo‘l motorikalari rivojlanadi;
- bola yozuv texnikasini egallashga tayyorlanadi;
- bola tasviriy faoliyat orqali diqqatini bir joyga taqsimlay olishni va ishini oxiriga qadar bajarishni, sabrli bo‘lishni o‘rganadi;
- tabiatni, atrof-olamni kuzatishni, uni asrab-avaylashni, ardoqlashni, unga nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishni o‘rganadi;
- jamoa bo‘lib mehnat qilish, ishni rejalashtira olish, o‘rtoqlarini eshita olish va o‘zaro fikr-mulohazalarni inobatga olgan holda ishlash malakalari shakllanadi;
- xalqimizning boy madaniy-ma‘naviy merosi haqida tushuncha va tasavvurga ega bo‘ladi va ularni o‘z ishlarida ifodalashga o‘rganadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy o‘yinlarda o‘zini o‘zi boshqarishni yaxshi ko‘radi, shu bois bolaning ko‘rsatmalariga amal qilish samaralidir. Lekin shunday paytlar ham bo‘ladiki, bolangiz sizni o‘zining ijodiy faoliyatiga ko‘proq jalb etishni xohlaydi. Faol ishtirok etish orqali bolangizning ko‘nikma va tushunchasini rivojlantirishingiz mumkin. Bolaga biror ijod qilishning bir nechta usuli borligini ko‘rsatgan yaxshi. Misol uchun, odam chizish, qumdan qasr qurish yoki baraban chalishning bir nechta usullari mavjud. Bu bolalarga o‘z g‘oyalarini rivojlantirishi mumkinligini bilish imkonini beradi. Farzandingizga yangi yoki qimmat o‘yin materiallarini berishingiz shart emas. Qo‘lda yasalgan, qayta ishlangan va tabiiy materiallar o‘yin va tasavvurni kuchaytirishning arzon usullaridir.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish intellektual bilim qobiliyatlarini shakllantirish bilan o‘zaro bog‘liqdir. Bolaning tafakkuri tasavvur bilan chambarchas bog‘liq. Maktabgacha yosh - bu ertaklar, xayollar vaqti hisoblanadi. Shuning uchun aynan shu davrda bolaning ijodkorligi bilan ishlash, unga o‘z tasavvurini boshqarishga o‘rgatish maqbuldir. Ijodkorlikni rivojlantirish juda muhimdir. Agar bolada ijodkorlikning tabiiy moyilligi bo‘lsa

10-Noyabr, 2025-yil

tegishli e’tiborsiz qoldirilgan bo’lsa ham, yillar davomida ular ta’lim va o’quv dasturlari asosida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari va tarbiyachilar bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishni muhim deb bilishadi. Ko’pincha, afsuski, ijodkorlik umuman rag’batlantirilmaydi. Bu esa albatta noto’g’ri. Shuning uchun mehribon otalarning muhim vazifasi bolaning qobiliyatlarini saqlab qolish va shakllantirish, uning ijodini izlash va tarbiyalashda rag’batlantirib, bolaning ruhiyatiga ta’sir etib borishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D.S.Qaxarova “ Inklyuziv ta’lim texnologiyasi” o’quv va metodik qo’llanma 2014-yil
2. M.Sh.Nurmatova, Sh.T.Hasanova. D.E.Azimova. Ustaxonada amaliy mashg’ulot. Toshkent-2011
3. Xasanboyeva O.U. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi T:ILm ziyo 2006
4. Nurmatova M.Sh.Xasanova Sh.T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriyl faoliyatga o’rgatish metodikasi .”Cho’lpon” T:2010